

"JIZZAX" – KO'HNA TARIXGA VA GO'ZAL TABIATGA EGA MASKAN.

Norbo'tayeva Maxbuba Saitqul qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

e-mail: makhbubahanum@gmail.com

Annotatsiya: Jizzax shahri Jizzax viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Sangzor daryosi bo'yida, dengiz sathidan 460 m balandlikda joylashgan ushbu shahar geografik nuqtai nazardan O'zbekiston markazida joylashgan bo'lib, respublikaning janubiy va shimoliy-sharqiy qismini boshqa qismlari bilan bog'laydigan yirik transport tuguni hisoblanadi. O'ziga xos chuqur tarixga va go'zal tabiatga ega ushbu ko'hna zaminning hali ochilmagan sir-u sinoatlari, biz bilmagan qirralari bisyordir.

Kalif so'zlar: Dizak, Buyuk Ipak yo'li, qal'a, arxeologik qazilmalar, zardushtiylik, Qipchoq, Sharof Rashidov.

"JIZZAX" IS A PLACE WITH ANCIENT HISTORY AND BEAUTIFUL NATURE.

Annotation: The city of Jizzakh is the administrative, economic and cultural center of the Jizzakh region. Located on the banks of the Sangzor River, at an altitude of 460 m above sea level, this city is geographically located in the center of Uzbekistan and is a major transport hub connecting the southern and northeastern parts of the republic with other parts. This ancient land with its own deep history and beautiful nature has many undiscovered secrets and aspects that we do not know.

Keywords: Dizak, Great Silk Road, castle, archeological excavations, zoroastrianism, Kipchak, Sharof Rashidov.

Qadimi Jizzax vohasi O'zbekistonning ota-bobolarimiz yashagan, kindiq qoni to'kilgan, kelajak avlodlariga boshpana, baxt va saodat bera olgan muqaddas zamini hisoblanadi. Jizzax diniy va dunyoviy nuqtai nazardan haqiqiy ma'noda nafaqat islom ta'limoti, balki kalom falsafasi, shariat ustunlari yetishib chiqqan qadimiy tarixga ega bo'lgan yurt hisoblanadi. Jizzax shahri Nurota va Turkiston tizma tog'larini ajratib turuvchi, kengligi 120-130 metrga to'g'ri keluvchi Ilono'tti (Temur darvozasi) darasining shimoliy qismida Sangzor vodiysida shakllangan qadimiy shahardir. Sharqni G'arb bilan bog'lovchi qadimiy Buyuk Ipak karvon yo'lining aynan Ilono'tti darasidan o'tishi shahar mavqeining o'sishi va savdo markaziga aylanishiga sabab bo'lgan. XIX-XX asrlarda barpo etilgan Krasnovodsk – Toshkent temir

yo'li va Katta O'zbekiston traktining Jizzax orqali o'tishi shahar rivojida, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynadi. O'tmishda kichik qal'a-shaharcha bo'lgan, mustaqilligimizni qo'lga kiritganligimiz tufayli ijtimoiy-iqtisodiy sohalari, sanoati taraqqiy qilgan, xalq ta'limi va madaniyati rivojlanayotgan Jizzax shahri tarixini bugungi kunda istiqlol sharofati ila chuqurroq o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.

Jizzax – O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan bo'lib, miloddan avvalgi bir minginchi yillarda yuzaga kelgani ko'plab tarixiy manbalarda tilga olinadi. Boy tarixga ega bo'lgan shahar urbanistik jarayonining yuzaga kelishi bronza davriga borib taqaladi. Tarixchi-arxeolog olimlar tomonidan shaharning yoshini aniqlash, uning tarixiy obidalarini qoldiqlarini o'rganish borasidagi tadqiqot ishlari davom etmoqda. Mavjud tarixiy manbalar Sharqni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ustidagi chorrahada, qulay geografik hududda joylashgan Jizzax shahrining yoshi ming-ming yillar bilan o'lchanishidan dalolat bermoqda. Jizzax asrlar davomida turli mamlakatlar, hukmdorlar, bek-amaldorlar, olimu shoirlar, din rahnamolari, oddiy kishilar, xullas, barcha-barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan. Tarix guvohlik beradiki, qadimgi fors podshohlari ahomoniylar, yunon-makedonlar, arablar, mo'g'ullar va nihoyat Rossiya imperiyasi hukmdorlari bilan ota-bobolarimiz o'rtasida Jizzax shahri uchun bir necha bor qirg'in-barot janglar bo'lib o'tgan va shahar batamom yakson qilib tashlangan. Shaharning bunday janglarda bir necha marta vayron qilinganligini aytish va uning adog'iga yetish qiyin. Ammo tarixda Dizak, Gazo, Tayzaq, Tuzihaq, Faknon va boshqa nomlar bilan shuhrat qozongan bu shahar har gal yonib vayron bo'lsa-da, o'z o'rnida yangidan tiklanavergan, gullab-yashnayvergan. Bugungi kunda shaharning ko'hna tarixidan borilganda arxeologik qazilmalar natijasida hozirgi kungacha topilgan va topilayotgan toshdan, temirdan yasalgan mehnat qurollari, kulolchilik, zargarlik, temirchilik buyumlari, qadimgi qurol-yarog'lar, tangalar va boshqa ashyoviy dalillar, kiyim-kechak qoldiqlari ana shundan dalolat bermoqda. Arxeologik topilmalar shaharda turli dinlar ham hukm surganini ko'rsatmoqda. Jizzaxning qadim aholisi dastlab zardushtiylik-otashparastlik, keyinroq islom diniga e'tiqod qilgani tarixdan bizga ma'lum. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda din erkinligi, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida mavqei tiklanib, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi. Jizzax shahri ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Yunon-Rim tarixchilari Gerodot, Strabon, Ktetsiya, Ksenafont, Arrian, arab muarrixlari: Hofiz-Tarobiy, ibn Havqal, ibn Hurdodbek, Istahriy, ibn Batuta, Yoqu Hamaviy, Ibn Arabshoh, Muhammad Solih, Hofiz Tanish, Hamidulla Kazviniy, Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va

boshqa allomalar o'z asarlarida shahar tarixi, aholisining urf-odatlarini, dini, madaniyati haqida bitiklar yozib qoldirishgan.

Bugungi Jizzax shahri Jizzax viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Sangzor daryosi bo'yida, dengiz sathidan 460 m balandlikda joylashgan. Toshkent–Samarqand temir yo'l va Katta O'zbek trakti yoqasida. Shahar geografik nuqtai nazardan O'zbekiston markazida joylashgan bo'lib, Respublikaning janubiy va shimoliy-sharqiy qismini boshqa qismlari bilan bog'laydigan yirik transport tuguni hisoblanadi. Nurota tizmasining shimoliy etaklarida, Sangzor daryosi bo'yida, Mirzacho'l dashtining janubiy qismida joylashgan. Shahar nomi so'g'dcha "Dizak" (So'g'd. Dizak) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kichik qal'a", "kichik qal'acha" degan ma'noni bildiradi. Qadimiy Jizzax shahri vohada, Buyuk Ipak yo'lining Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasidan Samarqand shahrigacha bo'lgan karvon yo'llari chorrahasida paydo bo'lgan. Dizak deb nomlangan aholi punkti haqida birinchi eslatma X asrga to'g'ri keladi. Arab geograflari va sayyohlari Ibn-Haukal va Al-Mukadassiyning asarlarida u IV asrdan IX asrgacha mavjud bo'lgan qadimiy Ustrushana mamlakatidagi Faknon viloyatidagi shahar maqomida qayd etilgan. VIII asrda Ustrushonaga arab bosqinchilari yetib kelishdi, ular hududni Arab xalifaligi tasarrufiga kiritdilar. 893-yilda Ustrushona alohida mulk sifatida Somoniylar tomonidan tugatilib, X asrda ularning davlatiga kiritilgan. XI-XII asrlarda Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatlarida bo'lgan. 1220-yilda Chingizxon qo'shinlari tomonidan bosib olindi, bu esa aholining qirib tashlanishiga va shaharning butunlay vayron bo'lishiga olib keldi, natijada Jizzax parchalanib ketdi. XIV-XV asrlarda Temur davlati tarkibida qayta tiklangan. 1500-1599-yillarda Jizzax Buxoro xonligi tarkibiga kirdi, unga o'zbeklar sulolasi Shayboniylar, keyin esa Ashtarxoniylar boshchilik qildi. Jizzax va Ura-Tube shaharlari tez-tez o'zgarib turdi, aslida mustaqil bo'lib qoldi. Bu sohada o'zbek qabilalarining qirq va yuz zodagonlari yetakchi rol o'ynagan. 1756-1866-yillarda Jizzax Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan, unga o'zbek mang'itlar sulolasi boshchilik qilgan. 1860-yillarning boshlarida Jizzax qo'sh devor va chuqur xandaq bilan o'ralgan Jizzax bekining ma'muriy markazi bo'lgan. Shahar aholisi 20 ming kishini tashkil etgan. 1866-yil 11-oktyabrda Jizzax general D. I. Romanovskiy boshchiligidagi 2000 kishilik rus otryadi tomonidan qamal qilindi. Yetti kundan so'ng, hujum natijasida shahar quladi. 1887-yilda Jizzax Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Samarqand viloyatining uezd shahriga aylandi. 1916-yil Jizzax Turkiston qo'zg'oloni markazlaridan biri edi. Sovet davrida shahar qayta qurildi, sanoat korxonalarini qurildi, aholi soni ortdi. 1973-yil 29-dekabrda Jizzax

shahri yangi tashkil etilgan Jizzax viloyatining ma'muriy markaziga aylandi. 1988-yil 6-sentabrda Jizzax viloyati tugatilgandan so'ng 1990-yil 16-fevralgacha Jizzax viloyati qayta tiklangunga qadar Sirdaryo viloyatining markazi bo'lgan. Jizzax shahri kvartallarining zamonaviy nomlari (Qipchoq, Qangli, Saroy, Ravallik) bu hududda qadimda qabila guruhlari yashab, keyinchalik o'zbek etnosiga asos solganini eslatadi. O'zbek sharqshunoslari, akademiklar Y.G'ulomov, A.Muhammadjonov asarlarida, shuningdek, olimlardan H.Ziyoyev, N.Ne'matov, S.Anorboyev, M.Pardayev, H.Muhammedov, A.Bedimurodov, M.Isoqov, N.Nemtseva, S.Nishonov, O'.Nosirov, H.Haydarov, M.Pardayev va boshqalarning monografiya, risola va ilmiy maqolalarida shahar tarixi, madaniyati, xalqining turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va uning zulmidan sabr kosasi to'lgan Jizzax shahri aholisining 1916-yilda front orqasidagi mudofaa inshootlari va harbiy yo'llar qurish ishlariga safarbar etilishiga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik qo'zg'oloni tarixida o'chmas iz qoldirgan. Bu qo'zg'olonga boshchilik qilgan Nazirxo'ja Abdusalomov, Ziyo Qori Abdullayev, Muhammadrahim Abdurahimov, Komil Qori Bobojonov, Abdurahmon jevachi Abdujabborov, Ismoil bobo Ro'zimammedov, Nuriddin hoji Ma'rufxo'jayev, Muhammadxo'ja Hamroyev singari yurtparvar insonlar Rossiya imperiyasi hukumati harbiy dala sudining hukmi bilan qatl etiladilar. Bugungi kunda shaharda Jizzax qo'zg'oloniga bag'ishlangan ko'chma ko'rgazma va O'rda tarixi muzeyi tashkil qilingan, qo'zg'olonchilar nomi abadiylashtirilmoqda. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Jizzax haqidagi: "Men shu qadimiy zaminda tug'ilib o'sgan, uning nonini yeb, suvini ichib, unga farzandlik mehri bilan bog'langan bir inson sifatida tarix sinovlarida toblangan, mustahkam irodali Jizzax elining qanday ulkan ishlarga qodir ekanini yaxshi bilaman. Jizzax qadimdan Dizakiy, Zominiy, Navqadiy, Usmandiy nomlari bilan shuhrat qozongan ko'plab allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelgan. Bu diyordan 70 dan ziyod hadisshunos, 30 dan ortiq islom huquqshunoslari yetishib chiqqani tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum" deb alohida ta'kidlab o'tganliklari bu muqaddas zaminning nechog'lik tarixiy ahamiyatga molik ekanligining yana bir isbotidir. Shaharda o'tgan yillar mobaynida juda ko'plab taniqli kishilar – O'zbekiston xalq shoiri Hamid Olimjon, davlat va jamoat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, yozuvchi, dramaturg va olim Safar Azimov, mashhur jarroh, akademik O'ktam Oripov kabi xorijiy mamlakatlarda ham e'tirof etilgan tibbiyot xodimlari, ko'plab taniqli kishilar yetishib chiqqan. Bir so'z bilan aytganda bu ko'hna zaminning hali bizga

ochilmagan sir-u sinoatlari, ajjib hilqatlari, hurlik uchun jon olib jon bergan necha-necha mard va jasur o'g'lonlari, metindek mustahkam irodali tanti qizlari, ilm-u ma'rifat ziyosi birla umrguzaronlik qilgan aziz avliyolari, zahmatkash xalqi bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". –T.: O'zbekiston, 2017. -341-346 b.
2. Hakimov Q, G'o'dalov M. "Jizzax viloyati geografiyasi". – Jizzax.: Sangzor, 2004.
3. G'o'dalov M. "Jizzax viloyati tabiati va uni muhofaza qilish". –T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". –T.: O'qituvchi, 1996.
5. www.milliycha.uz